

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 8 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 8

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 8



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариш давлат техника университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддиневич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмутаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнура Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоков Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти, Денов
тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

1. Надира Махкамова

СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЎРНАТИЛГАНИДАН КЕЙИН ТУРКИСТОНДА ЖАМИЯТ ИЖТИМОИЙ ТУЗИЛМАСИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ.....5

2. Ollabergan Allaberganov

1945–1960-YILLARDA XORAZM VILOYATI QISHLOQLARIDA MAKTABGACHA TARBIYA TIZIMIDAGI MUAMMO VA ZIDDIYATLAR.....13

3. Zaxra Mirzayeva

K.P. FON KAUFMAN MA’MURIYATINING ILK KO‘RGAZMA TASHABBUSLARI.....17

4. Akmal Mengliboyev

SOVET HOKIMIYATI O‘RNATILISHI ARAFASIDAGI JANUBI-SHARQIY BUXORODA VAZIYAT.....23

5. Xushnudbek Mamadaliev

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA FARG‘ONA VODIYSI SHAHRLARIDAGI DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLAR.....28

6. Xosiyat Nafiddinova

MDH DAVLATLARIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TARIXIY-ETNOGRAFIK ASOSLARI VA ZAMONAVIY TADQIQOT YO‘NALISHLARI.....35

7. Бекзод Пайзуллаев

БУХОРО АМИРЛИГИ ВА ҚЎҚОН ХОНЛИГИНИНГ ЖИЗЗАХ, ЎРАТЕПА ВА ХЎЖАНД УЧУН КУРАШЛАРИ ТАРИХИ БЎЙИЧА МУЛОҲАЗАЛАР.....39

8. Mo‘minjon Salayev

BAQTRIYA HUUJATLARIDA AYOLLARNING HUQUQIY VA IJTIMOIIY MAQOMI (IV – VIII ASRLAR).....46

9. Nafisa Hayotova

БУХОРО ШАҲРИ МЕЪМОРИЙ МУҲИТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР: СИЁСИЙ ҲОКИМИЯТ ВА МЕЪМОРИЙ УСЛУБ ЎРТАСИДАГИ БОҒЛИҚЛИК.....55

10. Sevara Elmurodova


O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR MOHIYATI.....64

11. Ziyodulla Eshmirzayev

TO‘G‘ONSIZ SUG‘ORISHDAN MUHANDISLIK NAZORATIGA: XORAZMVOHASI IRRIGATSIYA TIZIMIDAGI BURILISH (1946–1991-YILLAR).....75

12. Абзамжон Юсупов

ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ЖАДИДЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-МАЪРИФИЙ ВА ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ФАОЛИЯТИ.....81

ISSN: 2181-9599
www.tadqiqot.uz

Zaxra Xayritdinovna Mirzayeva,
Toshkent davlat tibbiyot universiteti akademik
litseyi Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

K.P. FON KAUFMAN MA'MURIYATINING ILK KO'RGAZMA TASHABBUSLARI

For citation: Zakhra Kh.Mirzayeva. THE FIRST EXHIBITION INITIATIVES OF THE ADMINISTRATION OF K. P. VON KAUFMAN. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 8.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.22009949>

ANNOTATSIYA

Maqolada Turkiston general-gubernatorligining dastlabki yillarida K.P. fon Kaufman ma'muriyati tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan ilk ko'rgazma faoliyatining shakllanishi, uning tashkil etilish omillari hamda Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, XIX asrning umumjahon va Rossiya ko'rgazmalari an'analari bilan bog'liqlikda Turkistonning ko'rgazmalardagi ishtiroki mustamlakachilik siyosatining muhim mafkuraviy vositalaridan biri sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: K.P. fon Kaufman, Turkiston general-gubernatorligi, ko'rgazmalar, Rossiya imperiyasi, mustamlakachilik siyosati, Turkiston albomi, ilmiy ekspeditsiyalar, fotografiya, etnografiya, vizual reprezentatsiya.

Мирзаева Захра Хайритдиновна,
преподаватель кафедры общественных наук
Академического лицея Ташкентский государственный
медицинский университет

ПЕРВЫЕ ВЫСТАВОЧНЫЕ ИНИЦИАТИВЫ АДМИНИСТРАЦИИ К. П. ФОН КАУФМАНА

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются первые выставочные инициативы администрации К. П. фон Кауфмана, реализованные в первые годы существования Туркестанского генерал-губернаторства, рассматриваются предпосылки их возникновения, факторы организации, а также их роль в колониальной политике Российской империи. Кроме того, участие Туркестана в выставках анализируется в контексте традиций всемирных и российских выставок XIX века и оценивается как один из важных идеологических инструментов колониальной политики Российской империи.

Ключевые слова: К.П. фон Кауфман, Туркестанское генерал-губернаторство, выставки, Российская империя, колониальная политика, Туркестанский альбом, научные экспедиции, фотография, этнография, визуальная репрезентация.

Zakhra Kh.Mirzayeva,
Teacher, Department of Social Sciences
Academic Lyceum of Tashkent State Medical University

THE FIRST EXHIBITION INITIATIVES OF THE ADMINISTRATION OF K. P. VON KAUFMAN

ABSTRACT

This article analyzes the first exhibition initiatives launched by the administration of K. P. von Kaufman during the early years of the Turkestan Governor-Generalship, examining the factors behind their establishment and their role in the colonial policy of the Russian Empire. Furthermore, Turkestan's participation in exhibitions is examined within the context of the traditions of nineteenth-century international and Russian exhibitions and is assessed as one of the important ideological instruments of the Russian Empire's colonial policy.

Index Terms: K.P. von Kaufman, Turkestan Governor-Generalship, exhibitions, Russian Empire, colonial policy, Turkestan Album, scientific expeditions, photography, ethnography, visual representation.

1. Dolzarbligi:

Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgach, Rossiya imperiyasi o'lkani harbiy-siyosiy jihatdan egallash bilan cheklanmay, uning tabiiy boyliklari, qishloq xo'jaligi, hunarmandchiligi va iqtisodiy salohiyatini tizimli ravishda o'rganish hamda imperiya manfaatlariga mos yo'naltirishga kirishdi. Bu jarayonda K.P. fon Kaufman ma'muriyati tashabbusi bilan amalga oshirilgan dastlabki ko'rgazma-namoyish tadbirlari Turkistonni ilmiy jihatdan tadqiq etish, iqtisodiy resurslarini hujjatlashtirish va ularni Rossiya hamda xalqaro jamoatchilikka namoyish etishning muhim vositalaridan biri bo'ldi. Biroq mazkur tashabbuslarning vujudga kelish omillari, tashkiliy asoslari va mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishdagi o'rni milliy tarixshunoslikda alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Shu bois K.P. fon Kaufman ma'muriyatining ilk ko'rgazma tashabbuslarini ilmiy o'rganish, ularning imperiya mustamlakachilik siyosatidagi rolini ochib berish dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

2. Metodlar va o'rganilganli darajasi:

Tadqiqotda tarixiylik, xolislik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, tarixiy-tipologik, xronologik, muammoviy, tarixiy-genetik, tahlil va sintez, shuningdek, tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Turkiston general-gubernatorligi davrida tashkil qilingan ilk ko'rgazma va yarmarkalar faoliyati xususidagi tadqiqotlar o'lkaning shu tarixiy bosqichdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotida yuz bergan muhim o'zgarishlar haqida muhim ma'lumotlarni beradi. Shu sababdan mazkur masala Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati, savdo-iqtisodiy munosabatlar, qishloq xo'jaligi va sanoat taraqqiyoti, transport va kommunikatsiya tizimining rivojlanishi hamda ilmiy jamiyatlar faoliyatiga oid tadqiqotlar doirasida turli darajada yoritilgan.

Xususan, bevosita imperiya davrida N.Mayev, V.Gofmeyster, V.Nalivkinning asarlarida [1], vaqtli matbuotda chop qilingan maqolalarda [2], shuningdek, sovet davridagi tadqiqotlarda [3] batafsil yoritilgan. Ularning aksariyatida imperiya ma'muriyati tomonidan amalga oshirilgan bu tadbirlarning ahamiyatini ilmiy asoslashga qaratilgan. Biroq ushbu nashrlarning chuqur sharhi va ilmiy tahlili ushbu maqolaning maqsadi doirasiga kirmaydi.

Keyingi yillarda Turkiston general-gubernatorligi davrida tashkil etilgan dastlabki ko'rgazma va yarmarkalarning mazmun-mohiyati hamda ularni tashkil etish orqali hukumat ko'zlagan maqsadlarni yoritishga bag'ishlangan qator tadqiqotlar e'lon qilindi. Mazkur tadqiqotlarning aksariyatida ushbu tadbirlar Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishning muhim vositalaridan biri bo'lgani haqidagi ilmiy qarashlar ilgari surilmoqda. Jumladan, A.Bedelbaev, T.Asanturova, Z.Orozahunova, M.Satimkulova [4], D.Brover [5], A.Kotomina [6] kabi olimlar namoyish siyosatining mustamlakachilik xususiyatlari, aynan chor hukumatining bundan keng foydalanganligi borasida o'z qarashlarini ilgari surmoqdalar.

3. Tadqiqot natijalari:

Turkiston general-gubernatorligining dastlabki o'n besh yilligi (1867–1882) o'lkada ko'rgazma faoliyatining shakllanish bosqichi bo'lib, ayni vaqtda Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatini amalga oshirish vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ldi. Bu davrda doimiy ko'rgazma va muzeylar hali tashkil etilmagan bo'lsa-da, o'lkaning tabiiy boyliklari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, hunarmandchiligi hamda mahalliy aholining turmush tarziga oid materiallarni yig'ish va ularni imperiya miqyosidagi ko'rgazmalarda namoyish etish yo'lga qo'yildi. Mazkur faoliyat, asosan, Turkistonning iqtisodiy salohiyatini targ'ib qilish va o'lkadagi mustamlakachilik siyosatini mafkuraviy jihatdan asoslashga xizmat qildi [4].

Imperator Aleksandr II tomonidan Vasilevskiy orolidagi surgundan chaqirib olingan Konstantin Petrovich fon Kaufman 1867-yil 14-iyulda Turkiston general-gubernatorligining boshlig'i etib tayinlandi [7]. Yangi hokimiyatning mafkuraviy yo'nalishi dastlabki yillardanoq ochiq ifodalandi. 1868-yil 22-yanvarda Toshkent jamoatchiligi vakillari yig'ilishida fon Kaufman ilk bor ruslarni Turkiston xalqlarining "katta og'asi" deb atadi [8]. Mazkur yondashuv mustamlaka hokimiyatining "homiylilik" va "sivilizatsiya tashuvchilik" g'oyalarini ifodalab, keyinchalik ko'rgazmalar orqali targ'ib etilgan "taraqqiyot" konsepsiyasining mafkuraviy asosiga aylandi. Shu maqsadda ko'rgazmalar ilmiy yoki madaniy tadbir doirasidan chiqarilib, mustamlaka boshqaruvining muhim vositasiga aylantirildi. Kaufman tashabbusi bilan Turkistonga olimlar, rassomlar va harbiy mutaxassislar jalb etildi, ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirildi, o'lka haqidagi albomlar hamda statistik va etnografik to'plamlar tayyorlandi, Rossiya imperiyasining yirik ko'rgazmalarida Turkiston bo'limlari tashkil qilindi. Bu tadbirlar o'lkani ilmiy o'rganish bilan bir qatorda, uning iqtisodiy resurslarini o'zlashtirish, sarmoya jalb etish va Rossiya jamiyatida Turkiston haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qildi.

Dastlabki ko'rgazmalarda Turkiston, avvalo, paxta, ipak, jun, teri, foydali qazilmalar kabi xomashyo resurslariga boy o'lka sifatida talqin etildi. Mahalliy hunarmandchilik buyumlari va etnografik materiallar esa, asosan, "ekzotik" hamda "an'anaviy" madaniyat namunasi sifatida namoyish qilinib, ularning rivojlanish salohiyatiga yetarlicha e'tibor qaratilmadi. Natijada mahalliy aholi ko'rgazmalarda faol ishtirokchi emas, balki imperiya tomonidan tasvirlanadigan va namoyish etiladigan obyekt sifatida talqin qilindi [4]. Shu sababli fon Kaufman general-gubernatorligi yillarini ko'rgazma faoliyatining boshlanish davri bo'lishidan tashqari Turkistonni ilmiy o'rganish, iqtisodiy jihatdan o'zlashtirish va mafkuraviy jihatdan imperiya makoniga singdirishga qaratilgan islohotlarning bir qismi sifatida ham baholash mumkin. Buni general-gubernatorning islohot dasturi bilan amaliy mustamlakachilik o'rtasidagi ichki bog'liqlik sifatida baholab, "Kaufmanning mustamlaka rejalari" tushunchasi orqali izohlash mumkin [9]. Bu uning ma'muriyati o'lka tabiati, aholisi, xo'jaligi va tarixi haqida tizimli ma'lumot to'plashga jiddiy e'tibor qaratganini ko'rsatadi.

Turkistonning imperiya ko'rgazmalaridagi o'rnini to'g'ri baholash uchun bu jarayonni XIX asrning umumjahon va butunrossiya ko'rgazmalari an'anasida ko'rib chiqish zarur. Ma'lumki, zamonaviy ko'rgazma harakati 1851-yilda Londonda o'tkazilgan birinchi Butunjahon ko'rgazmasidan ("Billur saroy") boshlangan bo'lib, shundan so'ng ko'rgazmalar davlatlarning sanoat salohiyati va mustamlaka boyliklarini namoyish etuvchi muhim maydonga aylandi [10].

Rossiya imperiyasida esa ilk ko'rgazmalar tashkil qilish 1829-yilda Peterburgda o'tkazilgan birinchi Butunrossiya manufaktura ko'rgazmasidan boshlanib [11], keyinchalik akklimatizatsiya [12] (1858, 1863), etnografik (1867) va antropologik (1879) ko'rgazmalar bilan rivojlandi. Shu bois Turkiston imperiya ko'rgazmalariga jalb etilgan paytda Rossiyada ko'rgazmalarni tashkil etish bo'yicha ko'p yillik tajriba va shakllangan tashkiliy tizim allaqachon mavjud edi.

K.P. fon Kaufman Turkistonga 1867-yilgi Rossiya etnografik ko'rgazmasi va Parijdagi Butunjahon ko'rgazmasidan keyin kelgan bo'lsa-da, undan avval Moskva ko'rgazmasiga tashrif buyurib, uning ayrim tashkilotchilari bilan shaxsan uchrashishga ulgurgan edi [6]. U zamondoshlarining Markaziy Osiyo haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda bunday ko'rgazmalarning naqadar muhim ekanini yaxshi anglagan. Boshqacha aytganda, u o'lkaga ko'rgazma amaliyoti bilan yaqindan tanish, uning imkoniyatlarini va jamoatchilik fikriga ta'sirini oldindan tasavvur qiladigan ma'mur sifatida kelgan.

Xiva xonligi zabt etilgach, K.P. fon Kaufman uning aholisi, geografiyasi, statistikasi, etnografiyasi va topografiyasi haqida ma'lumot to'plashni buyurgan [13]. Bunday yondashuv Kaufman ma'muriyatining umumiy siyosiy uslubiga xos bo'lib, unda hokimiyatni o'rnatish va o'lka haqidagi bilimni to'plash yagona jarayonning ikki tomoni sifatida namoyon bo'lgan.

Ungacha ham Kaufmanning ko'rgazmalar sohasidagi dastlabki qadamlari 1867-yilning yozidayoq qo'yilgan edi. O'sha yozda u kelajakdagi harbiy yurishlarni va Rossiya tomonidan bosib olingan yangi hududlarni tasvirlay oladigan rassom izlashni boshladi. Uning bu boradagi taklifini Parijda tasviriy san'at tahsilini endigina tugatib qaytgan yosh rassom V.V. Vereshchagin qabul qildi va xizmatga olindi. U 1867-yil kuzida Toshkentga yetib keldi hamda keyingi yil bahorida Kaufman topshirig'i bilan Turkiston bo'ylab safarga yuborildi [14]. Vereshchagin Samarqandni egallash harbiy yurishida qatnashdi, biroq sog'lig'i yomonlashgani sababli keyinchalik o'lkani tark etdi. Biroq, u 1869-yil boshida Sankt-Peterburgda fon Kaufman bilan yana uchrashib, o'z asarlari ko'rgazmasini tashkil etishni qo'llab-quvvatlashga ko'ndirdi. Mazkur ko'rgazma shu yilning mart-aprel oylarida Davlat mulklari vazirligi binosida bo'lib o'tdi. Ko'rgazmada Vereshchaginning asarlari bilan bir qatorda milliy kiyimlar, qurol-aslahalar, turli buyumlar, shuningdek, tabiatshunos N. Severtsovning 1865–1868-yillardagi ekspeditsiyasi davomida to'plangan mineralogik va zoologik kolleksiyalar ham namoyish etildi [15]. Kaufmanning o'zi ko'rgazmani tantanali ravishda ochdi va imperator Aleksandr II ning tashrifini ham tashkil etdi. Ko'rgazma katta muvaffaqiyat qozondi. Bu Rossiyada to'liq Turkistonga bag'ishlangan ilk ko'rgazma edi.

Bu 1872-yilgi Moskva Politexnika ko'rgazmasidan uch yil avval Rossiya jamoatchiligiga Turkiston o'lkasining ilk bor alohida hudud sifatida tanishtirilishi edi. Ko'rgazmada badiiy asarlar, etnografik buyumlar hamda tabiiy-ilmiy kolleksiyalarning birgalikda namoyish etilishi keyinchalik Turkistonga bag'ishlangan ko'rgazmalarda ham davom etdi. Rassom ushbu ko'rgazmada Turkistonni ikki xil qiyofada tasvirladi. Bir tomondan, Sharq afyun chekuvchilar va muxlislari qurshovidagi mahalliy hukmdorlar timsolida axloqiy tanazzul va qoloqlik makoni sifatida gavdalantirilgan. Ikkinchi tomondan esa, "G'alabadan so'ng" va "Mag'lubiyatdan keyin" kartinalarida Rossiyaning bosib olish urushlari bezaksiz, qonli voqelik sifatida aks ettirilgan.

Ko'rgazma yakunlanishi bilan oq Kaufman rassomni yana xizmatga oldi va uni Yettisuv viloyati gubernatori general G.A. Kolpakovskiy xizmatiga yubordi. Vereshchagin Turkistonda o'tkazgan bir yil davomida ayniqsa Yettisuv viloyatini batafsil o'rgandi. Rossiyaga qaytgach, Kaufman unga dala sharoitida tayyorlagan eskiz va chizmalarini kartinalarga aylantirish uchun uch yil davomida moliyaviy yordam ajratdi. Bu holat general-gubernatorning o'lka obrazini yaratishga qanchalik izchil va uzoq muddatli e'tibor qaratganidan dalolat beradi. Davlat mablag'i hisobidan uch yil davomida bir rassomni ta'minlash oddiy homiylik emas, balki aniq maqsadga yo'naltirilgan, natijasi oldindan ko'zda tutilgan siyosat edi.

Natijada "Turkiston turkumi" 1873-yilda yakunlandi va shu yili Londonda, 1874-yilda esa Sankt-Peterburg hamda Moskvada bir qator shaxsiy ko'rgazmalar tashkil etildi. 1867-yilgi Rossiya etnografik ko'rgazmasida namoyish etilgan Vladimir Plotnikov va Pavel Kosharovning chizma albomlari keyinchalik deyarli unutilgan bo'lsa-da, V. Vereshchaginning kartinalari Turkiston haqidagi tasavvurlarni shakllantirib, bugungi kungacha ushbu o'lkaning ramziy tasvirlari sifatida saqlanib qolgan.

1867-yil oxirida general-gubernator K.P. fon Kaufman Moskva tabiatshunoslik, antropologiya va etnografiyani sevuvchilar jamiyatining murojaatiga javoban Turkistonning ishlab chiqarish kuchlarini ilmiy dastur asosida o'rganish uchun olimni moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlashga tayyorligini bildirdi. Shundan so'ng jamiyat zoolog A.P. Fedchenkoni Turkistonga yubordi. U rafiqasi, botanik O.A. Fedchenko bilan 1869–1871-yillarda Zarafshon vodiysi, Iskandarko'l, Qizilqum va Farg'ona vodiysigacha bo'lgan hududlarda ilmiy ekspeditsiyalar o'tkazdi [16]. Tadqiqot natijalari 1875-yilda nashr etilgan "Turkistonga sayohat" asarida jamlandi. Asarning to'liq nomidayoq ekspeditsiya Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman topshirig'i bilan amalga oshirilgani alohida qayd etilgan [17].

Kaufman ma'muriyatining tasvirlar orqali hujjatlashtirish sohasidagi eng yirik loyihasi 1871–1872-yillarda tayyorlangan "Turkiston albomi" (Туркестанский альбом) bo'ldi. Bu ko'p

jildli fotografik nashr general-gubernatorning bevosita topshirig'iga ko'ra sharqshunos A.L.Kun rahbarligida, M.I.Brodovskiy va M.A.Terentyev ishtirokida tuzildi [18]. "Turkiston albomi"ning arxeologik va tarixiy qismlari o'lkaning moddiy-madaniy merosini hujjatlashtirishga bag'ishlangan bo'lib, ularda Samarqand va boshqa shaharlardagi me'moriy obidalar batafsil tasvirga tushirilgan. Merosni bunday hujjatlashtirish siyosiy jihatdan neytral hodisa emas edi: obidalarni tanlash, tasvirlash va tasniflash orqali o'lkaning tarixiy o'tmishi imperiya nuqtai nazaridan qayta talqin qilindi. Tadqiqotchi S.Gorshenina ta'kidlaganidek, rus mustamlaka ma'muriyati Samarqand yodgorliklarini "obida" sifatida qayd etish va saqlash orqali o'lka merosi haqidagi muayyan tasavvurni shakllantirgan [18]. Aynan shu meros qiyofasi keyinchalik ko'rgazmalarda ham namoyon bo'ldi. 1872-yilgi Politehnika ko'rgazmasidagi Turkiston payvilyonining Samarqanddagi Sherdor madrasasi ko'rinishida qurilishi buning yorqin dalilidir. Shu tariqa hujjatlashtirish, merosni qayta talqin qilish va uni namoyish etish yagona jarayonning uzviy bosqichlariga aylandi.

Albomni yaratishda qo'llanilgan fotografiya XIX asr o'rtalarida Yevropada shakllangan topografik va hujjatli fotografiya an'analari tayangan. S. Gorshenina va H. Zonntag ta'kidlaganidek, fotografiya Rossiya imperiyasida madaniy va mafkuraviy uzatish vositasi sifatida xizmat qilib, markazda shakllangan tasvirlash usullarini chekka o'lkalarga olib kirgan [20]. Shu bois fotografiya Turkistonni go'yoki xolis va ilmiy aks ettirgandek ko'rinsa-da, aslida o'lkaga oid muayyan tasavvurlarni shakllantirish vositasiga aylandi. Albom nusxalari imperiya poytaxti hamda Yevropaning ilmiy muassasalari va kutubxonalariga tarqatilib, Turkiston haqidagi bilimlarni yoyishga xizmat qildi. Bugungi kunda uning to'liq nusxalari AQSH Kongress kutubxonasi, Butunjahon raqamli kutubxonasi va O'zbekiston Milliy kutubxonasining elektron fondlarida saqlanmoqda.

4. Xulosalar:

Keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgan dastlabki yillardan boshlab ilmiy ekspeditsiyalar, fotografik albomlar va ko'rgazma faoliyati yagona siyosiy-mafkuraviy tizimning o'zaro bog'liq tarkibiy qismlari sifatida shakllantirildi. Ular orqali o'lkaning tabiiy resurslari, iqtisodiy imkoniyatlari va etnografik xususiyatlari tizimli ravishda o'rganilib, to'plangan ma'lumotlar Rossiya imperiyasining ilmiy muassasalari hamda ko'rgazmalarida keng targ'ib qilindi. Natijada Turkiston haqidagi bilimlar nafaqat ilmiy muomalaga kiritildi, balki imperiyaning iqtisodiy va siyosiy manfaatlariga mos ravishda talqin etildi.

Shu jihatdan, dastlabki ko'rgazmalarni faqat ilmiy yoki madaniy tadbir sifatida baholash yetarli emas. Ular Rossiya imperiyasining o'lkani iqtisodiy o'zlashtirish, investitsiyalarni jalb etish, mustamlakachilik siyosatini asoslash hamda Turkiston to'g'risidagi rasmiy tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qilgan muhim vositalardan biri edi. Binobarin, Turkistonning XIX asr oxiridagi ko'rgazmalardagi ishtiroki imperiyaning ilmiy, iqtisodiy va mafkuraviy manfaatlari uyg'unlashgan murakkab mustamlakachilik siyosatining tarkibiy qismi sifatida baholanishi lozim.

Iqtiboslar/ Сноски/ References:

1. Arzikulov J.X. XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi yarmarka va ko'rgazmalarning turkiston mintaqasi iqtisodiy hayotiga ta'siri. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024. – B. 5.
2. Маев Н.А. Туркестанская выставка 1890 г.: Путеводитель по выставке и её отделам. – Ташкент: Типолитография, 1890. – С. 89-103.
3. Фетисов В. Устроители Туркестана. Туркестанские генерал-губернаторы. – Ташкент: Ridero, 2021.
4. Bedelbaev A., Asanturova T., Orozahunova Z., Satimkulova M. (2025). All-Russian and Turkestani Exhibitions as a Reflection of the Russian Colonisation in Central Asia: The Case of Semirechye in the 2nd Half of the 19th Century // Connexe: Les espaces postcommunistes en question(s), Vol. 11 (1), pp. 56–79.
5. Brower D. Turkestan and the Fate of the Russian Empire. – New York: Routledge Curzon, 2003. – Part II, ch. 2: "Kaufman's Colonial Plans".

6. Котомина А. (2024). Тщательное коллекционирование и строгая группировка: история устройства туркестанского отдела в политехническом музее (1872-1900) // Люди и тексты. Исторический альманах (17). – С. 206-207.
7. Фетисов В. Устроители Туркестана. Туркестанские генерал-губернаторы. – Ташкент: Ridero, 2021. – С. 8.
8. Семенов А.А. Покоритель и устроитель Туркестанского края, генерал-адъютант К.П. фон-Кауфман I-й. – С. XVI–XVII,
9. Brower D. Turkestan and the Fate of the Russian Empire. – New York: Routledge Curzon, 2003. – Part II, ch. 2: “Kaufman’s Colonial Plans”.
10. Greenhalgh P. Ephemeral Vistas: The Expositions Universelles, Great Exhibitions and World’s Fairs, 1851–1939. – Manchester: Manchester University Press, 1988.
11. Корепанова С.А. Выставочная деятельность в России в XIX веке: Промышленные и научно-промышленные выставки. Диссертация на соискание учёной степени кандидата исторических наук. – Екатеринбург, 2005. – 335 с.
12. ***Izoh:** akklimatizatsiya – bu yangi hududga keltirilgan o‘simlik va hayvon turlarini mahalliy tabiiy-iqlim sharoitiga moslashtirish jarayonini anglatadi. https://rus-istoria.ru/library/item/145-politehnicheskaya-vystavka-1872-goda?utm_source=chatgpt.com
13. Прищепова В.А. Иллюстративные коллекции по народам Центральной Азии второй половины XIX – начала XX века в собраниях Кунсткамеры. – Санкт-Петербург: Наука, 2011.
14. Schimmelpenninck van der Oye David, (2009). Vasilij V. Vereshchagin’s Canvases of Central Asian Conquest // Cahiers d’Asie centrale (17/18): 179-209.
15. Асанова С. (2023). Полезные ископаемые туркестанского края на службе империи: идеи и практика конца XIX в. // Вестник МГПУ. Серия: Исторические науки 51 (3). – С. 38-48.
16. Горшенина С. (2021). Фотография и царская колониальная администрация Туркестана: конструируя историю и место между прошлым и будущим // Вестник МИЦАИ 31. – С. 53.
17. Федченко А.П. Путешествие в Туркестан члена-основателя общества А.П. Федченко, совершённое от Императорского общества любителей естествознания по поручению туркестанского генерал-губернатора К.П. фон Кауфмана. – Санкт-Петербург/Москва, 1875.
18. Туркестанский альбом по распоряжению туркестанского генерал-губернатора генерал-адъютанта К.П. фон Кауфмана 1-го: В 4 частях, в 6 томах / Сост. А.Л. Кун, М.И. Бродовский, М.А. Терентьев. – Санкт-Петербург, 1871–1872. – Фотогр., 35×48 см.
19. Gorshenina S. Samarkand and its cultural heritage: perceptions and persistence of the Russian colonial construction of monuments // Central Asian Survey. – 2014. – Vol. 33, No. 2. – P. 246–269.
20. Gorshenina S., Sonntag H.S. Early photography as cultural transfer in imperial Russia: visual technology, mobility and modernity in the Caucasus and Central Asia // Khazar Journal of Humanities and Social Sciences. Special Issue. – 2018. – P. 322–344.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000